Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 811.133.1

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

ANTROPOSENTRIK BIRLIKLARNING FRANSUZ YUMORISTIK DISKURSIDAGI PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Xamraqulova Mamasoliyevna Farida*

Andijon davlat chet tillari instituti

✉ xamraqulovafarida8@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada fransuz tilidagi yumoristik diskursda antroposentrik birliklarning pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda til birliklarining lug‘aviy ma’nosi bilan bir qatorda, kontekst, kommunikativ vaziyat, so‘zlovchining kommunikativ niyati va adresatning idroki ta’sirida yuzaga keladigan pragmatik mazmuni yoritiladi. Molièrening “Le Bourgeois gentilhomme” komediyasi hamda Honoré de Balzacning “Le Père Goriot” romanidan olingan misollar asosida antroposentrik birliklarning yumoristik effekt, kinoya va kommunikativ nomuvofiqlikni shakllantirishdagi o‘rni ochib beriladi. Tadqiqot natijalari bunday birliklarning nominativ vazifadan tashqari muhim pragmatik funksiyalarni ham bajarishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar

antroposentrik birliklar, yumoristik diskurs, pragmalingvistika, pragmatik ma’no, kontekst, kinoya, yumoristik effekt.

DOI: 10.5281/zenodo.23278142

Zamonaviy tilshunoslikda tilni faqat grammatik va leksik birliklar tizimi sifatida talqin qilish bilan cheklanib qolmay, uni inson tafakkuri, dunyoni anglash jarayoni, hissiy kechinmalari hamda kommunikativ faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab hodisa sifatida tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ana shunday yondashuv asosida shakllangan antroposentrik paradigma zamonaviy tilshunoslikning yetakchi yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi. Mazkur paradigmada inson omili markaziy o‘ringa qo‘yilib, til birliklarining inson tomonidan yaratilishi, anglanishi va muayyan kommunikativ vaziyatda qanday mazmun ifodalashi o‘rganiladi.

Yumoristik diskursning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda adresant tomonidan ifodalangan mazmun ko‘pincha bevosita, ya’ni yuzaki ma’noda anglashilmaydi. Uning asl mazmuni kontekst, kommunikativ vaziyat, intonatsiya, muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar hamda ularning umumiy fon bilimlari asosida shakllanadi. Shu tariqa, nutq jarayonida yashirin, ikkilamchi yoki ko‘chma ma’nolar yuzaga kelib, kommunikativ ta’sirchanlikni kuchaytiradi. Natijada antroposentrik xususiyatga ega bo‘lgan til birliklari yumoristik mazmunni shakllantirish va yumor effektini yuzaga keltirishning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Yumoristik diskursning markaziy obyektlaridan biri, avvalo, inson obrazidir. Chunki shaxsning fe’l-atvori, kundalik odatlari, xulqiy xususiyatlari, tashqi qiyofasi, intellektual salohiyati yoki jamiyatdagi mavqeyi turli yumoristik vaziyatlarning shakllanishiga asos bo‘lishi mumkin. Shu bois inson bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan til birliklarini antroposentrik birliklar sifatida tadqiq etish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Pragmalingvistikaning asosiy tadqiqot obyektlaridan biri til birliklarining real muloqot jarayonidagi faoliyati, so‘zlovchining kommunikativ niyati hamda uning adresatga ko‘rsatadigan ta’sirini aniqlashdan iborat.

Shu sababli yumoristik diskurs tarkibidagi antroposentrik birliklarni faqat lug‘aviy ma’nosi asosida izohlash ularning to‘liq mazmunini ochib berish uchun yetarli emas. Bunday birliklarning pragmatik xususiyatlarini aniqlashda ularning kontekstdagi qo‘llanishi, kommunikativ vaziyat, adresantning maqsadi va adresatning idroki kabi omillarni ham hisobga olish zarur.

Masalan, fransuz dramaturgi Molièrening “Le Bourgeois gentilhomme” komediyasida Monsieur Jourdain va falsafa o‘qituvchisi o‘rtasidagi dialog antroposentrik birliklarning pragmatik xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi. Asarning Acte II, scène 4 qismida Monsieur Jourdain “Nicole, apportez-moi mes pantoufles, et me donnez mon bonnet de nuit” kabi kundalik nutqiy ifodaning “prose” ekanligini anglab, hayrat bilan: “Par ma foi ! il y a plus de quarante ans que je dis de la prose sans que j’en susse rien”, deydi.

Mazkur o‘rinda “prose” leksemasi lug‘aviy jihatdan “nasr” ma’nosini bildirsa-da, kommunikativ kontekstda uning pragmatik mazmuni ancha kengayadi. Monsieur Jourdain ushbu birlikni oddiy lingvistik termin sifatida emas, balki o‘zining bilimdonligini anglash va ijtimoiy mavqeini tasdiqlash bilan bog‘liq tushuncha sifatida qabul qiladi. Qahramonning vaziyatni o‘ziga xos tarzda anglashiga asoslangan ushbu kommunikativ nomuvofiqlik yumoristik effektni yuzaga keltiradi. Demak, mazkur misol til birligining mazmuni faqat uning lug‘aviy ma’nosi bilan emas, balki so‘zlovchining kommunikativ maqsadi, bilim darajasi, ijtimoiy mavqeyi va muloqot vaziyati bilan ham belgilanib, pragmatik xususiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Antroposentrik birliklarning pragmatik xususiyatini Honoré de Balzacning “Le Père Goriot” romanidagi Vautrin va Eugène de Rastignac o‘rtasidagi dialog misolida ham kuzatish mumkin. Jumladan, Rastignac Madame Vauquer bilan hisob-kitob qilayotib: “Les bons comptes font les bons amis” (“Yaxshi hisob-kitob yaxshi do‘stlarni yaratadi”), deydi. Shundan so‘ng Poiret ushbu maqolga xos konstruksiyani o‘zgartirib: “Les bons amis font les bons comptes”, deya takrorlaydi. Vautrin esa vaziyatni davom ettirib, Rastignacga: “On dirait que vous avez peur de me devoir quelque chose ?” (“Menga biror narsadan qarzdor bo‘lib qolishdan qo‘rqayotganga o‘xshaysiz?”), deydi.

Mazkur dialogda “amis”, “comptes” va “devoir” kabi birliklarning mazmuni faqat lug‘aviy ma’no bilan chegaralanmaydi. Dastlab “comptes” moliyaviy hisob-kitobni, “amis” esa do‘stlik munosabatini bildiradi. Biroq dialogning keyingi rivojida ushbu birliklar o‘rtasidagi semantik va pragmatik munosabat o‘zgarib, ular shaxslararo majburiyat hamda ijtimoiy munosabatlar kontekstida qo‘shimcha mazmun kasb etadi. Ayniqsa, Vautrinning “devoir quelque chose” birikmasidan foydalanishi oddiy moliyaviy qarzdorlikni ifodalash bilan cheklanmay, boshqa shaxs oldidagi majburiyat ma’nosini ham yuzaga chiqaradi.

Dialogning yumoristik ta’siri, avvalo, maqolning strukturaviy transformatsiyasi va uning muayyan kommunikativ vaziyatga moslashtirilishi orqali yuzaga keladi. Poiretning “Les bons amis font les bons comptes” replikasi avvalgi “Les bons comptes font les bons amis” shaklining o‘zgartirilgan ko‘rinishi bo‘lib, uning komik-pragmatik qiymatini kuchaytiradi. Natijada bir xil leksik birliklarning turlicha tartibda qo‘llanishi orqali yangi kommunikativ ma’no yuzaga keladi. Shu sababli mazkur misol til birliklarining real muloqotdagi mazmunini aniqlashda ularning lug‘aviy ma’nosi bilan bir qatorda so‘zlovchining kommunikativ niyati, adresat bilan munosabati, nutq vaziyati va kontekstini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Fransuz tilidagi yumoristik diskursda inson obrazi muhim semantik va pragmatik markazlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxsning xarakteri, xulq-atvori, intellektual salohiyati, ijtimoiy mavqeyi va boshqa individual jihatlariga ishora qiluvchi til birliklari yumoristik mazmunni shakllantirishda faol ishtirok etadi. Ayniqsa, shaklan ijobiy bahoni bildiruvchi birliklarning muayyan kontekstda kinoyaviy yoki istehzoli mazmun kasb etishi, shuningdek, ularning bevosita lug‘aviy ma’nosi bilan kontekstual ma’nosi o‘rtasida yuzaga keladigan nomuvofiqlik yumoristik kommunikatsiyaning muhim pragmatik vositalaridan biri hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, antroposentrik birliklarning yumoristik diskursdagi funksiyasi ularning faqat nominativ imkoniyatlari bilan belgilanmaydi. Ularning kommunikativ qiymati kontekst, kommunikativ vaziyat, adresantning maqsadi va adresatning idroki bilan o‘zaro bog‘liq holda yuzaga keladi. Binobarin, bunday birliklarni pragmalingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etish yumoristik mazmunning shakllanish mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Umuman olganda, antroposentrik birliklarni pragmalingvistik yondashuv asosida tadqiq etish fransuz yumoristik diskursida ma’noning shakllanishi va anglanishi jarayonlarini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Bunday yondashuv, shuningdek, til birliklari, inson omili va milliy-madaniy xususiyatlar o‘rtasidagi uzviy aloqalarni aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, antroposentrik birliklarning pragmatik xususiyatlarini o‘rganish fransuz va o‘zbek tillaridagi yumoristik diskursni qiyosiy aspektda tadqiq etish, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash uchun muhim nazariy hamda amaliy zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Molière, Le Bourgeois gentilhomme, Acte II, scène 4. 27-bet

[2] Balzac, H. de. Le Père Goriot. 1910, pp. 127–128.

[3] Attardo, S. Linguistic Theories of Humor. – Berlin/New York: Mouton de Gruyter, 1994. – 426 p.

[4] Attardo, S. Humorous Texts: A Semantic and Pragmatic Analysis. – Berlin/New York: Mouton de Gruyter, 2001. – 238 p.

[5] Yule, G. Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 138 p..

[6] Wilson, D. The Pragmatics of Verbal Irony: Echo or Pretence? // Lingua. – 2006. – Vol. 116, No. 10. – P. 1722–1743.

[7] Attardo, S. Irony as Relevant Inappropriateness // Journal of Pragmatics. – 2000. – Vol. 32. – P. 793–826.